

Munavvar qori Abdurashidxonovning milliy maktab yaratish g'oyasi

Diyoraxon Sardorbek-qizi Rustamova

Feruza Bonu Bahodirova

E'zozaxon Maxmudova

Ilmiy maslahatchi: M.Mirzakarimova

Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo'lgan Munavvar qori Abdurashidxonovning ilmiy-pedagogik qarashlari tahlil qilinadi. Unda mutafakkirning milliy maktab yaratish g'oyasi, ta'lim mazmunini yangilash, darsliklar tuzishdagi yondashuvi, ilm va axloq masalasiga munosabati ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, Munavvar qorining pedagogik faoliyati mustamlakachilik sharoitida shakllangan ijtimoiy-siyosiy muhit bilan bog'liq holda tanqidiy nuqtayi nazardan baholanadi. Maqolada uning pedagogik merosining bugungi zamonaviy ta'lim tizimi uchun ahamiyati ham ochib beriladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, milliy maktab, ta'lim islohoti, pedagogik qarashlar, darsliklar, ma'rifat

Munavvar Qari Abdurashidkhanov's Idea of Creating a National School

Diyorakhon Sardorbek-kizi Rustamova

Feruza Bonu Bahodirova

E'zozakhon Makhmudova

Scientific Advisor: M.Mirzakarimova

Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article analyzes the scientific and pedagogical views of Munavvar Qari Abdurashidkhanov, one of the leading figures of the Jadid movement in Turkestan at the beginning of the 20th century. It covers the thinker's idea of creating a national school, his approach to updating the content of education, creating textbooks, and his attitude to the issue of science and morality based on scientific sources. Munavvar Qari's pedagogical activities are also critically evaluated in connection with the socio-political environment formed under colonialism. The

article also reveals the significance of his pedagogical legacy for today's modern education system.

Keywords: Jadidism, national school, educational reform, pedagogical views, textbooks, enlightenment

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy hayotida yuz bergan tub o'zgarishlar ta'lim va tarbiya masalasini kun tartibidagi eng dolzarb muammolardan biriga aylantirdi. Mustamlakachilik siyosati sharoitida millatning madaniy va intellektual rivoji jiddiy to'siqlarga duch kelgan bir paytda jadid ma'rifatchilari xalqni uyg'otishning eng samarali yo'li sifatida ta'lim islohotini ilgari surdilar. Ana shunday murakkab tarixiy vaziyatda Munavvar qori Abdurashidxonov nafaqat jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi, balki uning nazariy va amaliy asoschilaridan biri sifatida maydonga chiqdi. Munavvar qori ta'limni millatni saqlab qolish va taraqqiy ettirishning asosiy vositasi deb bildi. U eski maktab tizimining kamchiliklarini tanqid qilar ekan, yangi usuldagi maktablar orqali bolalarga faqat diniy bilim emas, balki dunyoviy fanlarni ham o'rgatish zarurligini ilgari surdi. Uning pedagogik qarashlari darsliklar yaratish, o'quv dasturlarini tuzish, o'qituvchi shaxsiga bo'lgan talablar hamda ilm va axloq uyg'unligi masalalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi Munavvar qori Abdurashidxonovning ilmiy-pedagogik merosini tizimli tahlil qilish, uning ta'lim haqidagi qarashlarini tarixiy sharoit bilan bog'liq holda baholash va bugungi zamonaviy pedagogik qarashlar bilan qiyoslashdan iboratdir. Shuningdek, maqolada mutafakkir faoliyatining kuchli jihatlari bilan bir qatorda, davr cheklovlari sabab yuzaga kelgan muammoli tomonlariga ham tanqidiy yondashiladi.

XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati jamiyat hayotining barcha sohalarini, ayniqsa ta'lim-tarbiya tizimini tubdan yangilashni maqsad qilgan ma'rifiy oqim sifatida maydonga chiqdi. Ushbu harakat vakillari jamiyatning orqada qolish sabablarini ilm-fan va ta'limdan uzoqlashganlik bilan izohladilar. Ana shunday tarixiy sharoitda Munavvar qori Abdurashidxonovning pedagogik dunyoqarashi shakllandi. Munavvar qorining bolalikdan diniy va dunyoviy bilimlarni egallashi, Buxoro madrasalaridagi ta'lim jarayonidan qoniqmasligi uning eski ta'lim tizimiga tanqidiy munosabatini kuchaytirdi. U an'anaviy maktablarda faqatgina yodlashga asoslangan, hayotdan uzilgan ta'lim shakli jamiyat taraqqiyotiga xizmat qila olmasligini anglab yetdi. Shu sababli u jadidchilik g'oyalarini qo'llab-quvvatlab, ta'limni isloh qilishni o'zining asosiy maqsadiga aylantirdi. Munavvar qori jadidchilikni faqat yangi usulda savod o'rgatish bilangina cheklamadi. U bu harakatni milliy ongni shakllantirish, mustaqil fikrlaydigan avlodni tarbiyalash vositasi sifatida

talqin qildi. Aynan shu yondashuv uning pedagogik qarashlarini chuqur ijtimoiy mazmun bilan boyitdi.

Munavvar qori Abdurashidxonov pedagogik qarashlarining markazida "milliy maktab" g'oyasi turadi. Uning fikricha, mustamlakachilik sharoitida millatni saqlab qolishning eng muhim yo'li o'z milliy ta'lim tizimiga ega bo'lishdir. U rus-tuzem maktablarining mahalliy aholi manfaatlariga to'liq xizmat qilmasligini tanqid qilib, ularni milliy maktablarga aylantirish tashabbusi bilan chiqqan. Munavvar qori tuzgan o'quv dasturlarida diniy fanlar bilan bir qatorda geografiya, tarix, hisob, ona tili kabi dunyoviy fanlarning o'qitilishi muhim o'rin egallaydi. Bu holat uning ta'limga kompleks yondashganini ko'rsatadi. U bolalarni faqat savodli qilishni emas, balki hayotga tayyorlashni ta'limning asosiy vazifasi deb bildi. Shuningdek, Munavvar qori o'qituvchi shaxsiga alohida e'tibor qaratdi. Uning fikricha, o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki axloqiy namuna bo'lishi kerak. Shu sababli u muallimlar tayyorlash masalasini ham ta'lim islohoti jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'rdi.

Munavvar qori Abdurashidxonov o'zbek ta'lim tarixida darslik yaratish masalasiga ilmiy yondashgan ilk pedagoglardan biridir. Uning "Adibi avval" va "Adibus-soniy" darsliklari yangi usul maktablari uchun mo'ljallangan bo'lib, sodda til, tushunarli matn va tarbiyaviy mazmuni bilan ajralib turadi. Bu darsliklarda faqat savod o'rgatish emas, balki o'quvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish ham ko'zda tutilgan. Ilm, mehnat, halollik, vatanparvarlik kabi tushunchalar matnlar orqali bolalar ongiga singdirilgan. Bu holat Munavvar qorining pedagogik faoliyatida ta'lim va tarbiyani ajralmas jarayon sifatida ko'rganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, uning darsliklari metodik jihatdan ham yangilik olib keldi. Yodlashga asoslangan eski usuldan farqli ravishda, tushunishga, fikrlashga undovchi mashqlar qo'llanildi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil tafakkurini rivojlantirishga xizmat qildi.

Munavvar qori Abdurashidxonov ilmni inson kamolotining eng muhim omili sifatida baholadi. Uning qarashlarida ilm faqat bilim olish vositasi emas, balki jamiyatni zulmatdan nurga olib chiqadigan kuch sifatida talqin qilinadi. U ilmni axloq bilan uyg'un holda olib borishni zarur deb bildi. Pedagog olimning fikricha, axloqsiz ilm jamiyat uchun xavfli bo'lishi mumkin. Shu sababli u ta'lim jarayonida axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratdi. Uning darsliklarida va publitsistik maqolalarida halollik, adolat, mas'uliyat kabi tushunchalar keng targ'ib qilinadi. Bu yondashuv bugungi zamonaviy pedagogik qarashlar bilan hamohang bo'lib, Munavvar qorining ilmiy-pedagogik merosi zamonaviy ta'lim uchun ham dolzarbligini saqlab qolayotganini ko'rsatadi.

Munavvar qori Abdurashidxonovning ilmiy-pedagogik merosi nihoyatda boy va rang-barangdir. Uning asosiy asarlari quyidagilardan iborat: "Adibi avval", "Adibus-soniy", "Usuli hisob", "Tarixi qavm turk", "Tajvid", "Havoyiji diniya", "Tarixi anbiyo", "Tarixi islomiya", "Yer yuzi", "O'zbekcha til saboqligi" (4 qism),

"Sabzavor", "Publitsistik maqolalar va hikoyalar". Mazkur asarlar nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham pedagogika va ma'rifat tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati alohida shaxslar faoliyati bilan emas, balki o'zaro fikrdosh va hamkor bo'lgan ziyolilar jamoasi orqali rivojlandi. Munavvar qori Abdurashidxonov ana shu jadid ziyolilari orasida markaziy o'rin egallagan shaxslardan biri bo'lib, u ko'plab zamondoshlari bilan ilmiy, pedagogik va ijtimoiy masalalarda yaqin hamkorlik qilgan. Munavvar qorining eng yaqin maslakdoshlari qatorida Abdulla Avloniy ham alohida tilga olinadi. Ular ta'lim islohoti, darsliklar yaratish va milliy maktab masalasida bir-birini to'ldiruvchi qarashlarga ega edilar. Munavvar qori Avloniy faoliyatini yuqori baholagan, ayniqsa uning tarbiya va axloq masalasiga oid qarashlarini qo'llab-quvvatlagan. Biroq Munavvar qori pedagogik tizimni ko'proq tashkiliy va dasturiy jihatdan rivojlantirishga urg'u bergan bo'lsa, Avloniy badiiy-pedagogik yo'nalishga ko'proq e'tibor qaratgan. Bu farq ular o'rtasida qarama-qarshilik emas, balki metodik xilma-xillik sifatida namoyon bo'lgan. Shuningdek, Munavvar qori bilan Behbudiy ham yaqin fikriy aloqada bo'lgan. Behbudiy jadidchilikning mafkuraviy va siyosiy jihatlariga ko'proq urg'u bergan bo'lsa, Munavvar qori ta'limni milliy uyg'onishning asosiy tayanchi deb bilgan. U Behbudiyning publitsistik va ma'rifiy faoliyatini qo'llab-quvvatlagan, biroq ta'lim masalasida masalani asta-sekinlik bilan, tizimli islohotlar orqali hal qilish tarafdori bo'lgan. Munavvar qorining zamondoshlari orasida Cho'lpon (Abdulhamid Sulaymon) ham muhim o'rin tutadi. Cho'lpon Munavvar qorining shogirdlaridan biri bo'lib, ustozining ilm, millat va ozodlik haqidagi qarashlaridan kuchli ta'sirlangan. Munavvar qori Cho'lponning adabiy iste'dodini qadrlagan, biroq siyosiy masalalarda ehtiyotkorlikni afzal ko'rgan. Bu holat ularning munosabatida ustoz-shogird hurmati saqlangan holda, yondashuvlaridagi farqni ko'rsatadi. Munavvar qori Ubaydulla xo'ja, Zaki validiy kabi zamondoshlari bilan ham siyosiy va ijtimoiy jarayonlarda hamkorlik qilgan. Ayniqsa, Turkiston muxtoriyati masalasida ularning qarashlari mushtarak bo'lgan. Biroq Munavvar qori siyosiy kurashdan ko'ra, ma'rifat va ta'lim orqali milliy ongni shakllantirishni ustuvor deb bilgan. Shu bilan birga, Munavvar qori barcha zamondoshlari bilan ham bir xil fikrda bo'lgan, deb bo'lmaydi. U ayrim jadid ziyolilarining haddan tashqari keskin siyosiy chiqishlarini tanqid qilgan, bunday yondashuv xalqni tayyor bo'lmagan kurashlarga olib kirishi mumkinligini ta'kidlagan. Bu holat uning fikrlashida ehtiyotkorlik va uzoqni ko'ra bilish xususiyati kuchli bo'lganini ko'rsatadi. Umuman olganda, Munavvar qori Abdurashidxonov zamondoshlari orasida muvozanatli, tizimli va amaliy pedagogik yondashuvi bilan ajralib turadi. U boshqa jadid ziyolilarini inkor etmagan, aksincha, ularning faoliyatini umumiy maqsad - millatni uyg'otish va ma'rifatli jamiyat qurish yo'lida

baholagan. Aynan shu jihat uning ilmiy-pedagogik merosini jadidchilik harakati doirasida alohida ahamiyatli qiladi.

Xulosa qilib aytganda, buyuk mutaffakirning ilmiy-pedagogik qarashlari XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakatining eng tizimli va amaliy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. U ta'limni faqat savod chiqarish vositasi sifatida emas, balki milliy ongni shakllantirish, jamiyatni ma'naviy va intellektual jihatdan yangilashning asosiy omili deb bildi. Munavvar qori zamondoshlari Abdulla Avloniy, Maxmudxo'ja Behbudiy, Cho'lpon va boshqalar bilan umumiy maqsad yo'lida harakat qilgan bo'lsa-da, ularning faoliyat yo'nalishlari o'zaro farqlangan. Avloniy axloqiy-tarbiyaviy masalalarni badiiy-pedagogik shaklda yoritgan bo'lsa, Behbudiy ijtimoiy-siyosiy uyg'onishga ko'proq urg'u berdi. Munavvar qori esa milliy maktab, o'quv dasturi, darslik va muallim tayyorlash masalalarini jadidchilikning asosiy tayanchi sifatida ko'rdi. Uning zamondoshlariga nisbatan munosabatida inkor yoki keskin qarama-qarshilik emas, balki tanqidiy hurmat ustuvor bo'lgan. Munavvar qori haddan tashqari keskin siyosiy chiqishlardan ehtiyot bo'lib, xalqni asta-sekin, ta'lim orqali uyg'otish yo'lini ma'qul ko'rgan. Bu yondashuv uning fikrlashida uzoqni ko'ra bilish va pedagogik mas'uliyat kuchli bo'lganini ko'rsatadi. Shuning uchun Munavvar qori Abdurashidxonov jadidchilik harakati doirasida nafaqat ma'rifatparvar, balki ilmiy-pedagogik tafakkuri yetuk, ta'lim tizimini isloh qilishga qodir mutafakkir sifatida baholanishi lozim. Uning merosi bugungi kunda ham milliy ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Munavvar Qori Abdurashidxonov Tarixi qavm turk. — Toshkent: Litografiya, 1911. — 112 b.: 3–15-betlar
2. Munavvar Qori Abdurashidxonov Tarixi islomiya. — Toshkent: 1912. — 128 b.22–35-betlar
3. Munavvar Qori Abdurashidxonov Tarixi anbiyo. — Toshkent, 1912. — 96 b 10–28-betlar
4. Munavvar Qori Abdurashidxonov Yer yuzi. — Toshkent, 1916. — 84 b.5–18-betlar
5. Munavvar Qori Abdurashidxonov O'zbekcha til saboqligi (4 qism). — Toshkent, 1925–1926. — 240 b.12–30-betlar
6. Munavvar Qori Abdurashidxonov Sabzavor. — Toshkent, 1914. — 64 b.7–20-betlar
7. Munavvar Qori Abdurashidxonov Xotiralarimdan / Jadidchilik tarixidan lavhalar. — Toshkent: Sharq NMAK, 2001. — 192 b.: 45–78-betlar.

8. Madaminjonovna, M. M. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
9. Muhammaddilyor Diyorbek O'G'Li Uzoqjonov, & Maxliyoxon Madaminjonovna Mirzakarimova (2025). Atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash muammolari. Science and Education, 6 (12), 17-21.
10. Mirzakarimova, M. (2025). O 'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIAGNOSTIK TAHLILI. Scientific journal of the Fergana State University, (4), 1-1.
11. Mirzakarimova, M. (2025). Didactic Effectiveness of Teaching General Sciences with an Entrepreneurial Orientation. Journal of Institutional Research South East Asia, 23(3).
12. Uzoqjonov, M. D. O. G. L., & Mirzakarimova, M. M. (2025). Zamonaviy texnologiyalarning atrof-muhitga ta'siri. Science and Education, 6(11), 281-284.
13. El-Atrash, A., Zaki, S., Tousson, E., & Negm, M. (2022). Copper oxide nanoparticles induced liver and kidney toxicity in rat. Asian Journal of Biochemistry, Genetics and Molecular Biology, 12(4), 154-160.
14. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonov, M. D. O. G. L. (2025). Zamonaviy axborot texnologiyalariga o 'tishda axborot xavfsizligi. Science and Education, 6(10), 89-93.
15. МИРЗАКАРИМОВА, М. М. (2022). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙУНАЛТИРИБ У^ ИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ.
16. Madaminjonovna, M., & Uzoqjonov, M. (2025). The possibilities of solving environmental problems through technology. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(7), 11-15.
17. Uzoqjonov, M., & Mirzakarimova, M. (2025). The role and significance of artificial intelligence in modern society. Technical Science Integrated Research, 1(6), 8-10.
18. Mirzakarimova, M., & Uzoqjonov, M. (2025). Information security in information-communication technologies. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(6), 8-11.
19. Умнов, Д. Г., Кариев, А. Д., Тешабоев, А. Ю., & Мирзакаримова, М. М. (2024). Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников. Перспективы науки и образования, (6 (72)), 420-436.
20. MADAMINJONOVNA, M. X. T. T. Y. (2022). NALTIRIB O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI. Nova. Pub, 1-128.
21. Madaminjonovna, M. M. (2024). ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE" MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(5), 51-55.

22. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi. Science and Education, 5(3), 264-269.
23. Mirzakarimova, M. M. (2024). O'qituvchining muomala madaniyati. Science and Education, 5(4), 278-282.
24. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji. Science and Education, 5(2), 224-228.
25. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari. Science and Education, 4(12), 321-324.
26. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish. Science and Education, 4(11), 78-83.
27. Mirzakarimova, M. (2023). CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATION METOD VA VOSITALAR. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (6), 410-415.
28. Мирзакаримова, М. М. (2020). Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. Science and Education, 1(4), 97-103.
29. Мирзакаримова, М. М. (2020). ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL" INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY, 1(1), 63-65.
30. Mirzakarimova, M. M. (2022). The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes. Telematique.-2022.-S, 7128-7131.
31. Мирзакаримова, М. М. (2020). Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. Science and Education, 1(4), 216-222.
32. Mirzakarimova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES. Академические исследования в современной науке, 2(8), 92-94.
33. Madaminjonovna, M. M. (2023). Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies. International Journal of Human Computing Studies, 5(3), 15-17.